

FRAZEOLGIK MA'NO VA MA'NOVIY MUNOSABAT

Turaboyeva Lobar Quramboyevna

Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7969165>

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik ma'noning o'ziga xosligi, frazemalar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik ma'no, frazeologik butunlik va frazeologik chatishma, frazeologik monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari

Lisoniy birlik sifatida frazemalarga ham, xuddi leksemalarda bo'lganidek, nomlash vazifasi va ma'lum bir ma'noni bildirish vazifasi xos. Faqat frazeologik birliklarning ayrim turlarida nomlash vazifasi yo'q. Frazemada ikki va undan ortiq leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi, frazmadan yaxlitligicha anglashiladigan ma'noni gavdalantirish uchun xizmat qiladi. Frazmadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, ayni vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi. Masalan, jonini jabborga ber-frazemasi "bor kuchini safarbar qilgani holda faoliyat ko'rsat" ma'nosini anglatadi; bu ma'no -jon-, jabbor-, ber- leksemalari anglatadigan ma'nolarning oddiy yig'indisi emas, balki ma'lum obrazga asoslanadigan umumlashma ko'chma ma'no. Leksemada bo'lganidek, frazemaning mazmun jihatida ham ikki hodisa ajratiladi: 1) lug'aviy ma'no, aniqrog'i - frazeologik ma'no, 2) baho semasi.

Frazeologik ma'no. Frazemaning voqelikka nisbat beriladigan lug'aviy mazmuni (nimanidir anglatishi, ifodalashi) frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, tuyaning kallasiday frazemasi "hajmi odatdagidan ancha katta, yirik" ma'nosini, yurak bag'ri qon bo'lib ketdi frazemasi "diltang bo'l-, ziq bo'l-" ma'nosini anglatadi.

Qovunga qarang. Har biri tuyaning kallasiday. Juda saralangan. (Oybek). Yurak bag'rim qon bo'lib ketdi, ... ertadan beri yolg'iz o'tiribman. (Oybek).

Frazeologik ma'no tarkibini semik tahlil qilish bilan ham idiografik semalar ajratiladi. Masalan, ta'b(i) xira frazemasi sifatlarning ruhiy holat bildiruvchi leksik-semantik guruhiga mansub. Bu guruh sifatlarning lug'aviy ma'nosi tarkibida "kayfiyat", "his-hayajonning ijobiy-salbiyligi", "his-hayajonning kuchli-kuchsizligi" kabi idiografik semalar ajratiladi. Ana shu semalar asosida yuqoridagi frazemaning ma'nosini kayfiyati biroz yomon holatda deb ta'riflash mumkin.

Frazmadan yaxlitligicha anglashiladigan lug'aviy ma'no bilan uning tarkibidagi leksemalar anglatadigan lug'aviy ma'nolar orasidagi munosabat asosida frazemalarning ikki ma'no turi farq qilinadi: 1) frazeologik butunlik, 2) frazeologik chatishma.

Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan, shu leksik ma'nolarning umumiy maxraji sifatida gavdalanadigan frazema frazeologik butunlik deyiladi: to'ydan ilgari nog'ora chal-yog' tushsa yalagudek, katta og'iz kabi. Misollar: Mehmonning qizarganini payqagan keksa boy xotinining katta og'iz va betamizligidan achchiqlanib yuzini teskari burdi. (Oybek).

Frazeologik chatishmaga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga hatto zid bo'ladi. Masalan, oyog'ini qo'ltig'iga ol - frazemasidan anglashiladigan ma'no (masofani o'ta tez sur'at bilan bos) tarkibidagi leksemalardan bevosita anglashilagan ma'nolarga zid: oyoqni

qo'lga olgandan keyin ,jadallik u yoqda tursin,umuman hech qanday harakat bo'lishi mumkin emas.

Frazeologik monosemiya-frazemaning semantik tarkibida bitta frazeologik ma'noning bo'lishi .Chunonchi,ko'ngliga qo'l solmoq frazemasining semantik tarkibida "yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qilmoq" ma'nosidan boshqa frazeologik ma'no yo'q:"Rizaning yuragiga qo'l solib ko'rgan Muhiddin uning javobidan xursand bo'ldi."(R.F.).Kechagi ishdan maqsadim u yerdagi xotinlarning ko'ngliga qo'l solib ko'rish ,undan keyin o'zinga ba'zi bir ishonchliroqlarini tanlab olish edi."(S.Z.).

Frazeologik polisemiya-frazemaning semantik tarkibida ikki yoki undan ortiq frazeologik ma'noning bo'lishi.Masalan:boshi aylandi frazemasining semantik tarkibida ikkita frazeologik ma'no bor:1)Behud bo'lmoq ma'nosi:"stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi."Muncha darmonsiz bo'lmasam ",-o'yladi u".(S.Z.);2)Esankiramoq ma'nosi : ".....muloyim qarab qo'yishlarini ,...jilmayib gapirishlarini sezardim,buning hammasidan boshim aylanardi".(O.Y.)

Frazeologik sinonimiya bir necha frazemaning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashishidir.Masalan:1)pixini yorgan-"ayyor",2)Ilonning yog'ini yalagan-"ayyor" kabi.Yana :1)yer bilan osmoncha –"Juda katta farq",2)ot bilan tuyacha-"Juda katta farq" kabi.

Leksik sinonimiyada bo'lganidek,frazeologik sinonimiyada ham sinonimik qatorlar yuzaga keladi:birinchi misoldagi pixini yorgan va ilonning yog'ini yalagan frazemalari "ayyor" ma'nosi bilan bitta sinonimik qatorni ;ikkinchi misoldagi yer bilan osmoncha va ot bilan tuyacha frazemalari esa "juda katta farq" ma'nosi bilan bitta sinonimik qatorni hosil qiladi.Frazeologik sinonimlarda uslubiy bo'yoq,odatda ,bo'rtib turadi.Asilda,frazeologik birliklar (frazemalar) xuddi shu maqsadda- voqelikni nomlash,uni o'tkir baholab berish uchun ,shu voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalash uchun yaratiladi,shuning uchun ular nutqning ta'sirchan ,obrazli bo'lishini ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaladi.Misollar:1.Bunga Botirning achchig'i keldi,buni Bo'ston sezdi.(S.N.).2.Keyingi nasihatimiz gapi qonini qaynatib yubordi.(S.An.).

Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z frazemalari doirasida uchraydi:Qilidan quyrug'igacha .-Ipidan ignasigacha;Quvonchi olamga sig'maydi.-Sevinchi ichiga sig'maydi.Boshqa tildan frazema o'zlashtirish juda passiv bo'lganligidan,o'zlashma iboralarning frazeologik sinonimiya doirasiga tortilishi juda kam uchraydi.Frazeologik sinonimiya hodisasini frazeologik variatsiyadan farqlash kerak:frazeologik sinonimiyada bir necha frazema bir ma'no atrofida birlashadi,demak,bitta sinonimik qatorni hosil qiladi;frazeologik variatsiyada esa bitta frazemaning ichki ko'rinishlari nazarda tutiladi,bunday ko'rinishlar sinonimik qator hosil qilmaydi.

Frazeologik antonimiya ikki frazemaning o'zaro zid ma'no ifoda- lashidir: oshig'i olchi va ishi o'ngidan kelmaslik; boshi ko'kka yetmoq va fig'oni falakka chiqmoq kabi. Antonimiya hodisasi ikki frazema o'rtasidagina emas, leksema bilan frazema o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin: xursand (leksema), siyoh (frazema), andavur (leksema)-yulduzni benarvon uradigan (frazema) kabi. Bular lug'aviy antonimlarning leksik-frazeologik turi sanaladi. Demak, lug'aviy birliklar o'zaro zid ma'no anglatishiga ko'ra leksik antonimlar (so'z bilan so'z o'rtasida), frazeologik antonimlar (frazema bilan frazema o'rtasida) va leksik-frazeologik antonimlar (so'z bilan frazema o'rtasida) kabi mikrosistemalarni hosil qilishlari mumkin. So'nggi yillarda frazemalarni lingvokulturologiya, etnolingvistika nuqtai nazarlaridan o'rganish ko'payib

bormoqda. Ayniqsa, bu tendensiya boshqa tillar, xususan, qardosh bo'lmagan tillar bilan qiyosan o'rganishga asoslangan. Frazemada ikki va undan ortin leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi, frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan ma'noni gavdalandirish uchun xizmat qiladi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, ayni vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi.

References:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. –Тошкент, 1966.
2. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. –Тошкент, 1993.
3. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. – Тошкент, 1999.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент, 1992.
5. Абдуллаев Ш. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси. Филол.фан номзоди....дисс. автореферати. –Тошкент, 2006.